O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Pomidorlarni sotish va tijorat sifatini nazorat qilish standarti

(FFV-36:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 18-avgustdagi 30/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart UNECE Standard FFV-36 concerning the marketing and commercial quality control of Tomatoes” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

POMIDORLARNI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ ДЛЯ МАРКЕТИНГОВОГО И ТОВАРНОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ТОМАТОВ

STANDARD FOR THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF TOMATOES

Amalga kiritish sanasi: 1.09.2026-yil

1 Mahsulotning ta’rifi

Mazkur standart *Solanum lycopersicum L.* turiga mansub navlardan yetishtirilgan va yangi holda iste’molchiga yetkazib berish uchun mo‘ljallangan pomidorlarga nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan pomidorlar ushbu standart doirasiga kirmaydi.

Pomidorlar quyidagi tijorat turlariga tasniflanishi mumkin:

- yumaloq;
- qovurg‘ali;
- cho‘zinchoq yoki uzaygan shaklli;
- barcha shakllardagi gilos pomidorlari (cherry) yoki kokteyl pomidorlari (mitti navlar).

2 Sifatga oid qoidalar

Mazkur standartning maqsadi pomidorlarga tayyorlash va qadoqlashdan keyin qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlarga yo‘l qo‘yiladi:

- yangiligi va tarangligining (turgor holatining) biroz pasayishi;
- "Oliy" navdan tashqari boshqa navlarga mansub mahsulotlarda ularning tabiiy rivojlanishi va tez buzilish xususiyati tufayli sifatining ozgina yomonlashishi.

Mahsulot egasi (sotuvchisi) mazkur standart talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa usulda muomalaga chiqarishi mumkin emas.

Mahsulot egasi (sotuvchisi) mahsulotning ushbu standart talablariga muvofiqligi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Har bir nav uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, barcha navdagi pomidorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- butun bo‘lishi;
- sog‘lom bo‘lishi; chirigan yoki buzilganligi sababli iste’mol qilish uchun yaroqsiz bo‘lgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- toza bo‘lishi, ya’ni ko‘zga tashlanadigan begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi;
- zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- eti zararkunandalar tomonidan shikastlanmagan bo‘lishi;
- tashqi yuzasida me’yordan ortiq namlik bo‘lmasligi;

- begona hid va/yoki begona ta’mga ega bo‘lmasligi.

Shingilda (bandi bilan) sotiladigan pomidorlarda bandlari yangi, sog‘lom va toza bo‘lishi, barglardan hamda har qanday ko‘zga tashlanadigan begona aralashmalardan xoli bo‘lishi lozim.

Pomidorlarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- tashish va ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Yetilish talablari

Pomidorlarning rivojlanish darajasi va yetilganlik holati ularning pishish jarayonini davom ettirish hamda iste’mol uchun qoniqarli darajadagi pishganlikka erishishini ta’minlashi lozim.

C. Tasnifi

Pomidorlar quyida belgilanganidek uchta navga bo‘linadi:

(i) Oliy nav

Ushbu navdagi pomidorlar eng yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular qattiq, naviga va (yoki) tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Pomidorlarda yashil rang va boshqa nuqsonlar bo‘lmasligi kerak. Faqat mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi.

(ii) Birinchi nav

Ushbu navdagi pomidorlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular yetarli darajada qattiq hamda naviga va (yoki) tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Ularda yoriqlar va ko‘zga yaqqol tashlanadigan yashil rang bo‘lmasligi kerak.

Biroq mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati va qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

- shakli va rivojlanishidagi kichik nuqsonlar;
- rangidagi kichik nuqsonlar;
- po‘stlog‘idagi kichik nuqsonlar;
- juda kichik ezilgan joylar.

Bundan tashqari, qovurg‘ali pomidorlarda quyidagilarga yo‘l qo‘yiladi:

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

• uzunligi 1 sm dan oshmaydigan bitib ketgan yoriqlar;
• ortiqcha bo‘rtmalar bo‘lmasligi;
• kichik kindik izi bo‘lishi mumkin, biroq po‘kaklanish bo‘lmasligi;
• urug‘ izi atrofida 1 sm² gacha bo‘lgan po‘kaklanish;
• cho‘zinchoq shakldagi (chok ko‘rinishidagi) ingichka gul izi bo‘lishi mumkin, biroq uning uzunligi mevaning eng katta diametrining uchdan ikki qismidan oshmasligi lozim.

(iii) Ikkinchi nav

Mazkur navga yuqoriroq navlar talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan minimal talablarga mos keladigan pomidorlar kiradi.

Ular yetarli darajada qattiq bo‘lishi kerak (biroq I navdagiga nisbatan biroz yumshoqroq bo‘lishi mumkin) hamda bitmagan yoriqlarga ega bo‘lmasligi lozim.

Pomidorlar sifati, saqlanish sifati va taqdim etilishining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

• shakli va rivojlanishidagi nuqsonlar;
• rangidagi nuqsonlar;
• po‘stlog‘idagi nuqsonlar yoki ezilgan joylar, agar ular mevaning holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasa;
• yumaloq, qovurg‘ali yoki cho‘zinchoq pomidorlarda uzunligi 3 sm dan oshmaydigan bitib ketgan yoriqlar.

Bundan tashqari, qovurg‘ali pomidorlarda quyidagilarga yo‘l qo‘yiladi:

• I navda ruxsat etilganidan ko‘ra yaqqolroq bo‘rtmalar, biroq mevaning shakli buzilgan bo‘lmasligi kerak;
• kindik izi bo‘lishi mumkin;
• urug‘ izi atrofida 2 sm² gacha bo‘lgan po‘kaklanish;
• choksimon cho‘zinchoq ingichka gul izi.

3. Kalibrlashga oid qoidalar

Pomidorlarning o‘lchami ekvatorial kesimining eng katta diametri, vazni yoki donasi (soni) bo‘yicha aniqlanadi.

Quyidagi talablar:

- shingilda (bandi bilan) sotiladigan pomidorlarga tatbiq etilmaydi; hamda quyidagi mahsulotlar uchun ixtiyoriy hisoblanadi:
- diametri 40 mm dan kichik bo‘lgan gilos va kokteyl pomidorlari;
- shakli notekis bo‘lgan qovurg‘ali pomidorlar;
- II nav pomidorlari.

Bir qadoq ichidagi pomidorlarning o‘lchami bir xil bo‘lishini ta’minlash maqsadida ularning o‘lchamlari orasidagi farq quyidagidan oshmasligi kerak.

a) Diametri bo‘yicha saralangan pomidorlar uchun:

- agar qadoqda ko‘rsatilgan eng kichik pomidorning diametri 50 mm dan kichik bo‘lsa — 10 mm;
- agar qadoqda ko‘rsatilgan eng kichik pomidorning diametri 50 mm yoki undan katta, biroq 70 mm dan kichik bo‘lsa — 15 mm;

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- agar qadoqda ko‘rsatilgan eng kichik pomidorning diametri 70 mm yoki undan katta, biroq 100 mm dan kichik bo‘lsa — 20 mm.
- diametri 100 mm va undan katta bo‘lgan mevalar uchun diametrlar o‘rtasidagi farq bo‘yicha cheklov belgilanmaydi.

O‘lcham kodlari qo‘llanilgan taqdirda, quyidagi jadvalda belgilangan kodlar va ularga mos o‘lcham diapazonlariga rioya etilishi lozim:

O‘lcham kodi	**Diametri, mm**
0	≤ 20
1	> 20 – ≤ 25
2	> 25 – ≤ 30
3	> 30 – ≤ 35
4	> 35 – ≤ 40
5	> 40 – ≤ 47
6	> 47 – ≤ 57
7	> 57 – ≤ 67
8	> 67 – ≤ 82
9	> 82 – ≤ 102
10	> 102

b) Vazni yoki donasi (soni) bo‘yicha saralangan pomidorlar uchun o‘lchamlar orasidagi farq a) bandida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi lozim.

4. Ruxsat etilgan og‘ishlarga oid qoidalar

Savdoga chiqarishning barcha bosqichlarida har bir turkumda ko‘rsatilgan nav talablariga to‘liq javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha belgilangan me’yorlarda yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga ruxsat etiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

(i) Oliy nav

Soni yoki vazni bo‘yicha hisoblaganda, mazkur nav talablariga javob bermaydigan, biroq Birinchi nav talablariga javob beradigan pomidorlarning umumiy miqdoriga 5 % gacha yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur chetlanish doirasida Ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotlarning ulushi umumiy hisobda 0,5 % dan oshmasligi lozim.

(ii) Birinchi nav

Soni yoki vazni bo‘yicha hisoblaganda, mazkur nav talablariga javob bermaydigan, biroq Ikkinchi nav talablariga javob beradigan pomidorlarning umumiy miqdoriga 10 % gacha yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur chetlanish doirasida Ikkinchi nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirigan mahsulotlarning ulushi umumiy hisobda 1 % dan oshmasligi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Shingilda (bandi bilan) sotiladigan pomidorlar uchun bandidan ajralib qolgan pomidorlarning soni yoki vazni bo‘yicha 5 % gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi..

(iii) Ikkinchi nav

Mazkur navda soni yoki vazni bo‘yicha hisoblaganda, Ikkinchi nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan pomidorlarning umumiy miqdoriga 10 % gacha yo‘l qo‘yiladi. Ushbu chetlanish doirasida chirigan mahsulotlarning ulushi umumiy hisobda 2 % dan oshmasligi lozim.

Shingilda (bandi bilan) sotiladigan pomidorlar uchun bandidan ajralib qolgan pomidorlarning soni yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha navlar uchun: soni yoki vazni bo‘yicha hisoblaganda, belgilangan o‘lcham talablariga javob bermaydigan pomidorlarning umumiy miqdoriga 10 % gacha yo‘l qo‘yiladi.

5. Taqdim etishga doir talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil:

- kelib chiqishga;
- navga yoki tijorat turiga;
- sifatga;
- o‘lchamga (agar o‘lcham bo‘yicha saralangan bo‘lsa)

ega bo‘lgan pomidorlardan iborat bo‘lishi lozim.

"Oliy" va Birinchi nav pomidorlarining pishganlik darajasi hamda rangi deyarli bir xil bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, cho‘zinchoq pomidorlarning uzunligi ham yetarli darajada bir xil bo‘lishi lozim.

Biroq bir-biridan aniq farq qiladigan navlar, tijorat turlari va (yoki) rangdagi pomidorlarni bitta qadoqqa joylashga ruxsat etiladi, bunda ular sifat jihatidan bir xil bo‘lishi hamda har bir nav, tijorat turi va (yoki) rang bo‘yicha kelib chiqishi bir xil bo‘lishi shart.

Bunday aralash qadoqlarda o‘lchamning bir xil bo‘lishi talab etilmaydi.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibini ifodalashi lozim.

B. Qadoqlash

Pomidorlar mahsulotni yetarli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi lozim.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak.

Savdo rekvizitlari tushirilgan qog‘ozlar yoki tamg‘alardan foydalanishga ruxsat etiladi, bunda bosma yoki markirovka toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Har bir mevaga alohida yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda ko‘rinadigan yelim izlarini qoldirmasligi va meva po‘stlog‘iga shikast yetkazmasligi lozim.

Alohida mevalarga lazer yordamida tushirilgan axborot meva eti yoki po‘stlog‘ida nuqsonlar hosil qilmasligi kerak.

Qadoqlar har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi lozim.

6. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[1] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiya belgilar

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va pochta manzili (masalan: ko‘cha, shahar, viloyat (hudud), pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi); yoki bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECE ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lsa, vakolatli milliy organ tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[2].

B. Mahsulot tavsifi

- agar qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa, «Pomidorlar» yoki «Shingildagi pomidorlar» hamda ularning tijorat turi, yoki «Gilos (cherry)/kokteyl pomidorlari», «Shingildagi gilos (cherry)/kokteyl pomidorlari» yoki boshqa mitti navlar uchun shunga teng ma’nodagi nom;
- pomidorlarning bir-biridan aniq farq qiladigan navlari, tijorat turlari va (yoki) ranglari aralash holda qadoqlangan bo‘lsa — «Pomidorlar aralashmasi» yoki shunga teng ma’nodagi nom.

  Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, qadoqda har bir nav, tijorat turi va (yoki) rangi hamda ularning miqdori ko‘rsatilishi lozim.
- nav nomi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

kelib chiqish mamlakati[3] hamda, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud (tuman), milliy, mintaqaviy yoki mahalliy geografik nom;

kelib chiqishi turli mamlakatlardan bo‘lgan, bir-biridan aniq farq qiladigan navlar, tijorat turlari va (yoki) rangdagi pomidorlar aralashmasi qadoqlangan bo‘lsa, har bir kelib chiqish mamlakati tegishli nav, tijorat turi va (yoki) rang nomining yonida ko‘rsatilishi lozim.

D. Tovar tavsiflari

- nav;

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- o‘lchami (agar o‘lcham bo‘yicha saralangan bo‘lsa), quyidagilardan biri orqali ifodalanadi:
- eng kichik va eng katta diametri;
- eng kichik va eng katta vazni; yoki
- III-bo‘limda belgilangan o‘lcham kodi; yoki
- mevalar soni, shuningdek eng kichik va eng katta o‘lchami ko‘rsatilgan holda.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan: 1961-yil
Oxirgi marta qayta ko‘rib chiqilgan: 2017-yil
2017-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan.

OECDning Meva va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi ushbu standartni qo‘llashga oid izohli va tasvirlar bilan boyitilgan qo‘llanmani nashr etgan. Mazkur nashrni OECD kitoblar do‘koni orqali quyidagi manzildan olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

_____

Izohlar

[1] Ushbu markirovka talablari qadoq ichiga joylashtirilgan chakana savdo qadog‘iga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq alohida sotuvga mo‘ljallangan chakana savdo qadog‘i (oldindan qadoqlangan mahsulot) uchun ushbu talablar majburiy hisoblanadi.

[2] Ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq qadoqlovchi va (yoki) jo‘natuvchining nomi hamda manzilini to‘liq ko‘rsatish majburiy hisoblanadi. Biroq kodli belgi qo‘llanilganda, uning bevosita yonida «qadoqlovchi va (yoki) jo‘natuvchi» (yoki shunga teng qisqartma) ko‘rsatilishi lozim. Agar tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgi oldidan ushbu mamlakatning ISO 3166 (alfa) bo‘yicha mamlakat (hudud) kodi qo‘yilishi kerak.

[3] Kelib chiqish mamlakatining to‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bibliografik ma’lumotlar

SMT: 67.080

STANDARTLAR INSTITUTI #DRQVB8UPZI - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI